

**MOBIL ILOVA VA INTERNET-BANK ORQALI OMONAT JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

**Tursinbayeva Gulsauir Karuanbayevna**  
Bank-moliya akademiyasi 2-kurs magistranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi sharoitida mobil ilova va internet-bank texnologiyalari yordamida omonat jalb qilish jarayonlari tahlil qilingan. Mavzuda banklarning raqamli xizmatlarni kengaytirish orqali depozit portfelini diversifikatsiya qilish, mijozlar ishonchini oshirish hamda moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashdagi roli ilmiy asosda yoritilgan. 2020–2024-yillar davrida tijorat banklari aktivlari, depozit va kredit portfeli hajmidagi o‘shishlar, shuningdek, Mikrokreditbank misolida raqamli xizmatlar samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalarida bank omonatlarini jalb etishda mobil texnologiyalarni takomillashtirish, onlayn moliyaviy platformalarning integratsiyasini kengaytirish va resurs bazasini mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** tijorat banklari, raqamli bank, mobil ilova, internet-bank, omonatlar, depozit siyosati, raqamli transformatsiya, resurs bazasi, mijoz ishonchi, kredit portfeli, kapital yetarliligi, mikromoliyalashtirish, likvidlik, innovatsion xizmatlar, moliyaviy barqarorlik, strategiya, risk boshqaruvi, investitsiya, iqtisodiy o‘shish, moliya bozori.

**Kirish**

So‘nggi yillarda O‘zbekiston bank-moliya tizimi chuqur transformatsiya bosqichiga kirib, raqamli texnologiyalar asosida yangi moliyaviy xizmatlar tarmog‘ini shakllantirmoqda. Xususan, mobil ilova va internet-bank platformalari orqali omonat jalb qilish mexanizmlarining kengayishi bank tizimining raqobatbardoshligini oshirmoqda. Bunday o‘zgarishlar natijasida tijorat banklari mijozlar bilan masofaviy ishlash imkoniyatlarini kengaytirib, moliyaviy resurs bazasini diversifikatsiya qilishga erishmoqda.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi, banklar faoliyatini raqamlashtirish va innovatsion xizmatlarni joriy etishni jadallashtirdi. Natijada, omonatchilar soni ortib, depozitlarning umumiy hajmi 2020–2024-yillar davomida 2,3 baravardan ortiq o‘sdi. Bu jarayon, o‘z navbatida, bank tizimining likvidligi, ishonchliligi va barqarorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

### **Adabiyotlar sharxi**


Ilmiy adabiyotlarda omonat siyosatini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Jahon banki (World Bank, 2022) ma'lumotlariga ko'ra, raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi banklarning depozit bazasini o'rtacha 25–30% ga kengaytirgan. Shu bilan birga, J. McKinsey (2023) tadqiqotida mobil ilovalar orqali omonat jalb qilish mijoz sodiqligini 1,8 baravarga oshirishini ta'kidlagan.

Mahalliy olimlardan N. Jumayev va B. Berdiyarov (2021) O'zbekistonda tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi omonatlarni jalb etish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanini qayd etgan. A. Burxanov (2022) esa omonat siyosatini diversifikatsiya qilish orqali bank kapitalining yetarliligini ta'minlash imkoniyatlarini o'rganib chiqadi. S. Ergashev (2023) tadqiqotida esa internet-bank tizimlari mijoz ishonchini oshirishda asosiy vosita sifatida baholangan.

Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, raqamli bank texnologiyalari omonatchilar uchun qulaylik yaratish bilan bir qatorda, operatsion xarajatlarni kamaytiradi va bankning daromadlilik ko'rsatkichlarini oshiradi. Shu sababli, O'zbekiston bank tizimida raqamli omonat xizmatlarini joriy etish muhim strategik ustuvorlikka ega.

### **Asosiy qism**

So'nggi yillarda mamlakatda makroiqtisodiy muvozanatni mustahkamlash, inflyatsion bosimlarni pasaytirish, narx shakllanishida bozor mexanizmlarini keng qo'llash, raqobatbardosh iqtisodiy muhitni rivojlantirish va valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tijorat banklarining depozit siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu o'zgarishlar banklarning resurs bazasini shakllantirish, depozit portfelining tarkibiy diversifikatsiyasi hamda depozit xizmatlarini ko'rsatish shakllarining zamonaviylashuviga sabab bo'lmoqda. Natijada, bank tizimi transformatsion bosqichga kirib, depozit faoliyatining sifati va samaradorligi yangi darajaga ko'tarildi.



**1-rasm. 2020–2024-yillar davomida tijorat banklari resurs bazasining tarkibi dinamikasi<sup>1</sup>**

2020–2024-yillar oralig‘ida O‘zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslari hajman sezilarli kengaydi. 2020-yilda jami aktivlar 410,2 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil oxiriga borib 895,5 trillion so‘mga yetdi, bu esa besh yil ichida moliyaviy salohiyatning qariyb 2,2 barobarga o‘shishini anglatadi. Ushbu o‘shish bank sektorining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilikdagi rolini yanada kuchaytirgan.

So‘mning AQSh dollariga nisbatan kursi 2020-yildagi 10 460 so‘mdan 2024-yilda 12 350 so‘mgacha o‘sgan bo‘lsa-da, bu omil bank balanslarining nominal o‘shishida asosiy makroiqtisodiy faktor sifatida e‘tirof etiladi. Shu davrda tijorat banklarining kredit portfeli 310,9 trillion so‘mdan 620,4 trillion so‘mga oshgan bo‘lib, bu iqtisodiyotning real sektori uchun moliyaviy oqimlarning 2 baravardan ortiq kengayganini bildiradi. Kreditlar bank balansining 70 foiz atrofini tashkil etib, asosiy daromad manbai sifatida yetakchi o‘rinni egallamoqda.

Banklararo mablag‘lar 2024-yilda 23,7 trillion so‘mga, naqd aktivlar esa 47,8 trillion so‘mga yetdi. Bu esa likvidlikni ta‘minlash, to‘lov tizimi uzluksizligini saqlash va operatsion risklarni kamaytirishda muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda naqd mablag‘lar hajmining oshishi banklarning to‘lov barqarorligini ta‘minlashda asosiy omil bo‘ldi.

Depozit portfeli 2020-yildagi 125,6 trillion so‘mdan 2024-yilda 298,3 trillion so‘mga yetib, 138 foizga o‘sd. Ushbu ko‘rsatkich banklarga bo‘lgan aholining

<sup>1</sup> muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining ochiq ma‘lumotlari asosida tayyorlangan

ishonchi mustahkamlanib borayotganini hamda depozit bazasi barqarorligini kuchayganini ko'rsatadi. Balansdagi ulushi 30,6 foizdan 33,3 foizgacha oshgan. Jismoniy shaxslar omonatlarining o'sishi esa raqamli bank xizmatlari, mobil ilovalar va onlayn tranzaksiyalar kengayishi bilan izohlanadi.

Banklarning xorijiy moliya institutlaridan jalb etgan kreditlari 2020-yildagi 175,9 trillion so'mdan 2024-yilda 328,6 trillion so'mga yetgan. Bu o'sish xalqaro hamkorlikning kengayganini, lekin balansdagi ulush 42,9 foizdan 36,7 foizgacha kamayganini ko'rsatadi. Bu esa ichki manbalar hisobidan moliyalashtirish ulushining ortayotganidan dalolat beradi.

Bank kapitali 2020–2024-yillarda 52,8 trillion so'mdan 108,3 trillion so'mga oshib, kapital yetariligi bo'yicha Bazel standartlariga mos barqarorlik darajasini ta'minladi. Ushbu natijalar bank tizimining moliyaviy barqarorligini, risklarga chidamliligini va iqtisodiyotdagi vositachilik salohiyatining ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar oralig'ida tijorat banklari resurs bazasi, kreditlash hajmi va depozit siyosati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilib, raqamli texnologiyalar asosida samarali boshqaruv modeliga o'tmoqda. Ushbu o'zgarishlar bank tizimining milliy iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirib, monetar siyosatning foiz kanali orqali iqtisodiy o'sishga ta'sirini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda.

2020–2024-yillar oralig'ida tijorat banklari balansida asosiy resurs manbalari tarkibida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. Dinamik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu davrda depozitlar, jalb etilgan qarz mablag'lari hamda bank kapitali o'rtasida muhim strukturaviy siljishlar yuz bergan.


Avvalo, bank depozitlarining umumiy balansdagi ulushi 2020-yildagi 30,6 foizdan 2024-yilda 33,3 foizgacha oshdi. Bu holat bank tizimiga nisbatan ishonchning mustahkamlanayotgani, aholining jamg'arishga bo'lgan qiziqishi ortgani hamda raqamli bank xizmatlarining kengaygani bilan bog'liq. Shu bilan birga, banklar tomonidan yangi omonat turlarini joriy etish, foiz siyosatini takomillashtirish va mijozlarga qulay sharoit yaratish natijasida depozitlar hajmi barqaror o'sib bordi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, jalb etilgan qarz mablag'lari ulushi 42,9 foizdan 36,7 foizgacha qisqardi. Bu esa banklarning tashqi moliya manbalariga qaramligi kamayib, ichki moliyaviy resurslardan samaraliroq foydalanilayotganini bildiradi. Mazkur tendensiya milliy moliya bozorining chuqurlashgani va banklararo hamkorlikning kengaygani bilan izohlanadi.

Shuningdek, bank kapitalining balansdagi salmog'i 2020-yildagi 12,9 foizdan 2024-yilda 14,1 foizgacha oshdi. Bu ko'rsatkich moliyaviy barqarorlikning

mustahkamlanayotganini, ustav kapitalining oshirilganini hamda olingan foydaning qayta investitsiya qilinayotganini anglatadi. Kapitalning ortishi esa banklarning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirib, ularning umumiy likvidlik darajasini yaxshiladi.

Yaqin istiqbolda esa banklar resurs bazasida milliy va xorijiy valyutadagi qarz mablag'lari hajmining o'sishi kutilmoqda. Bu jarayon tashqi moliyalashtirish imkoniyatlarining jozibadorligi, milliy valyutadagi depozitlar bo'yicha foiz stavkalari o'sishi va inflyatsion kutilmalarning yuqoriligiga bog'liq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, banklar o'z resurs manbalarini diversifikatsiyalash orqali barqaror rivojlanish strategiyasini davom ettirishlari zarur.



## 2-rasm. ATB “Mikrokreditbank” balans ko‘rsatkichlari dinamikasi, (mln. so‘m va foizda)<sup>2</sup>

2020–2024-yillar davomida ATB “Mikrokreditbank” faoliyati barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Bank aktivlari hajmi 2020-yilda 9,5 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda 20 trillion so‘mga yaqinlashdi, ya’ni besh yil ichida qariyb 2,1 barobarga o‘ydi. Bu o‘shish bankning iqtisodiyotdagi o‘rni kengayganini, resurs bazasi mustahkamlanib, yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar joriy etilayotganini anglatadi.

Mijozlar depozitlari hajmi 2020-yildagi 4,5 trillion so‘mdan 2024-yilda 13 trillion so‘mga yetdi. Ushbu uch barobarga yaqin o‘shish aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanayotganini va raqamli bank xizmatlarining ommalashganini ko‘rsatadi. Omonatlarning balansdagi salmog‘i barqaror darajada saqlanib, moliyaviy barqarorlikni ta’minlab kelmoqda.

Bank kredit portfeli 2020-yildagi 6,5 trillion so‘mdan 2024-yilda 13 trillion so‘mga ko‘tarilib, ikki barobar oshdi. Kredit siyosati asosan kichik biznes va mikromoliyalashtirish sektoriga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalishdagi kengayish tadbirkorlik faolligini oshirish va bandlikni rag‘batlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kredit portfelinin sifati, qaytariluvchanligi va risklarni boshqarish tizimi izchil takomillashmoqda.

Bank kapitalining hajmi 2020-yildagi 520 milliard so‘mdan 2024-yilda 1,2 trillion so‘mga oshgan. Bu o‘shish bank foydasining reinvestitsiya qilinayotganini, kapital yetarliligi va rentabellikning barqarorligini aks ettiradi. Kapitalning balansdagi ulushi 10–12% atrofida saqlanib, prudensial me‘yorlarga to‘liq mos kelmoqda.

Naqd aktivlar 2020-yildagi 120 milliard so‘mdan 2024-yilda 320 milliard so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich joriy likvidlik siyosatining samarali yuritilayotganini va qisqa muddatli majburiyatlar bajarilishini kafolatlayotganini bildiradi.

Shuningdek, 2020–2024-yillarda Mikrokreditbank resurs bazasini diversifikatsiya qilish maqsadida qimmatli qog‘ozlar chiqarish hajmini 30 milliard so‘mdan 80 milliard so‘mgacha oshirdi. Bu bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, kapitallashuv darajasini sezilarli yaxshiladi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar oralig‘ida Mikrokreditbank faoliyati barcha asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar — aktivlar, omonatlar, kredit portfeli va kapital hajmining izchil o‘shishi bilan tavsiflanadi. Ushbu natijalar bankning ichki boshqaruv tizimi takomillashganini, raqamli transformatsiya jarayonlari samarali kechayotganini

<sup>2</sup> <https://mkbank.uz/ru/about/indicators>

va mijozlar ehtiyojiga yo'naltirilgan strategiya muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

### **XULOSA**

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari, jumladan ATB "Mikrokreditbank", o'z faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali moliyaviy resurs bazasini sezilarli darajada kengaytirdi. Mobil ilova va internet-bank xizmatlarining ommalashuvi natijasida jismoniy shaxslar depozitlari hajmi uch barobarga oshdi, kredit portfeli esa ikki baravar kengaydi. Ushbu o'sish bank sektorining iqtisodiyotdagi vositachilik rolini kuchaytirib, raqamli transformatsiyaning amaliy natijasini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, banklar o'z omonat siyosatini mijozlarga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirib, yangi turdagi raqamli omonat mahsulotlarini joriy etmoqda. Bu esa bank tizimining likvidligini oshirib, barqaror moliyaviy rivojlanish uchun mustahkam poydevor yaratmoqda. Shuningdek, raqamli depozit xizmatlarining kengayishi inflyatsion bosimni kamaytirish, ichki jamg'arma hajmini oshirish va investitsion faollikni rag'batlantirishda ham muhim rol o'ynamoqda.

Xalqaro amaliyot tahliliga ko'ra, raqamli bank xizmatlarini joriy etgan banklar an'anaviy omonat tizimiga qaraganda 1,5–2 baravar yuqori rentabellikka ega. Shu bois, O'zbekiston tijorat banklari ham mobil va internet-bank platformalarini yanada takomillashtirish, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini jalb etish orqali depozit siyosatining samaradorligini oshirishi maqsadga muvofiqdir.

Natijada, raqamli texnologiyalar asosida omonat jalb qilish tizimini rivojlantirish bank sektorining barqarorligini ta'minlash, mijozlar bazasini kengaytirish va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. Abdullaeva Sh.Z. *Bank xizmatlarini takomillashtirish orqali banklarning resurs bazasini kengaytirish*. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 312 b.

2. Allabegyanov S. *O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida depozitlarni jalb qilish amaliyoti*. // *Iqtisodiyot va ta'lim*, 23(2), 51–57. – T., 2022.

3. Bektemirov A., Malikova D.M., Bo'taev J.E. *Tijorat banklarining depozit bazasini mustahkamlash yo'llari*. // *Journal of Marketing, Business and Management*, 2(2), 167–174, 2023.

4. Vohidov O.R. *O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari*. I.f.b.f.d. avtoreferat. – T.: 2024. – 62 b.

5. Raxmanov Z.Ya. *Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish*. I.f.b.f.d. avtoreferat. – T.: 2018. – 54 b.

6. Rahimov S.A. *Innovatsion iqtisodiyotda banklarning depozit siyosati samaradorligini oshirish yo'llari*. I.f.b.f.d. avtoreferat. – T.: 2021. – 50 b.

7. Melikov O.M. *Tijorat banklari kredit va depozit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish yo'llari*. – Denov TPI, 2023. – 56 b.

8. Mamatov A.A. *O'zbekiston banklarida aktiv-passivlarni boshqarish holati*. // *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 3(6), 1195–1212, 2023.

9. <https://www.cbu.uz>

10. <https://mkbank.uz>

11. <https://www.mf.uz>

12. <https://www.president.uz>

13. <https://stat.uz>

14. <https://www.lex.uz>

15. <https://digital.gov.uz>